

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

**DORIVOR TUKLI ERVA (AERVA LANATA) O‘SIMLIGINING SURXONDARYO  
SHAROITIDA GULLASH BIOLOGIYASI VA KO‘PAYTIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

**Abdurahmonov Sanjar Bahrom o‘g‘li**

E-mail: sanjarabdurahmonov@gmail.com

Tel:(+998919027174)

**Annotatsiya:** Maskur maqolada Aerva lanata L. o‘simligiga qo‘llaniladigan agro-  
texnik chora-tadbirlari va o‘simlikning qanday va qaysi soxalarda qo‘llanilishi, biologik  
tasnifi, o‘simlikning geografik tarqalishi, floristik joylashuvi hamda O‘zbekiston  
Respublikasi sharoitida qanday omillar ta‘sirida ko‘paytirilishi haqida qisqacha  
ma‘lumot berib o‘tilgan

**Kalit so‘zlar:** Tukli erva , gulli, agrotexnikasi, tarqalishi.

**O‘SIMLIKNING QISQACHA TASNIFI**

Aerva lanata L. ko‘p yillik, shoxlangan va bo‘yi 55-70 sm ga yetadigan o‘t o‘simlik.  
Barglari lantsetsimon, ovalsimon yoki ellipssimon, tekis qirrali bo‘lib, qisqa bandi  
yordamida poya va shoxlarda qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, och yashil  
rangli bo‘lib, qisqa boshqosimon gulto‘plamiga o‘rnashgan. Urug‘i yaltiroq, qora rangli.  
O‘simlikning hamma qismi sertukli, kulrangda. Aerva lanata L. Afrika, Filippin,  
Hindiston, Janubiy Osiyo, va Seylonda tabiiy holda keng tarqalgan bo‘lib ikki yillik o‘t  
o‘simlik. Aerva lanata qumli tuproqlarda, cho‘l tekisliklarida uchraydi. Butalar ostida ham  
o‘sadi. Amarantaceae oilasiga mansub bu o‘t o‘simlik O‘zbekistonda bir yillik  
dorivor o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Introduktsiya qilingan o‘simliklarning tarkibi, A.L.  
Taxtadjyan tomonidan berilgan Yer sharining floristik oblastlari klassifikatsiyasiga  
binoan asosan 10 ta floristik oblastga mansubdir [1].

**TADQIQOT USLUBI.**

O‘simlikning bioekologiyasi va o‘shish dinamikasini S. Kabulov, X.K.  
Matjanova, M.M. Orel [2] tomonidan taklif etilgan usullar bo‘yicha amalga oshirildi.  
Tadqiqot Termiz davlat universitetining tajriba yer maydonida va Sho‘rchi tumani  
“Oybek fermer xo‘jaligi” da olib borildi.

Olingan natijalar. Tukli erva O‘zbekistonda bir yillik o‘t o‘simlik hisoblanadi. Ildiz  
tarmog‘i chuqur emas (20 sm), oqish, ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan o‘q ildizli, asosiy  
ildiz o‘rnini bosuvchi nisbatan yirik, ikkinchi tartib tarmoqli ildizlari bor. Ildizlarning  
asosiy qismi tuproqning 3,5-8 sm qatlamida joylashgan. Ildiz tarmog‘ining shoxlanish  
tartibi V tartibli shoxlanishgacha yetadi. Asosiy poyasi yog‘ochlangan bo‘lib, bo‘yi 60 sm  
bo‘lib, o‘rtacha 40 sm ni tashkil etadi. Asosiy poya iyul oyining o‘rtalarida o‘shishdan  
to‘xtaydi va shu davrda 2-3 tadan II-III tartibli novdalar hosil qiladi. Bir tupdagi  
ikkinchi tartibli novdalar soni 3 donadan 5 donagacha bo‘lib, uzunligi 2 sm dan 15 sm  
gacha yetadi. Yaproqlari nashtarsimon tuxumsimon yoki tuxumsimon-ellipssimon,  
uzunligi 2-3 sm, eni 0,5-1,5 sm qisqa bandli, chekkalari butun, uch qismi o‘tkirlashgan



Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

yoki to'mtoq bo'lib, asosi ponasimon. Yaproqlar dastlab qarama-qarshi, keyin ketma-ket joylashib qalin tuklar bilan qoplangan. Poyaning quyi qismida yaproqlari yirikroq, yuqoriga borgan sari maydalashib boradi. To'pguli konussimon zich boshqoq tarzida bo'lib, qalin oqimtir tuk bilan qoplangan. Gullarining eni 2 mm, tashqi tomoni sertukligi tufayli kulrang-oqish, ichki tomoni esa och yashil. Urug'lari 0,6-0,8 mm, qora, yaltiroq. O'simlik yil davomida nam yetarli muhitda muhitda yashaydi, quruqlikda esa nobud bo'lishini aniqlandi. Nam yetarli bo'lganda o'sish, gullash va meva berish jarayonlari doimiy ravishda sodir bo'ldi. Gullari ikki jinsli hashoratlar yordamida changlanishi aniqlandi. Xona sharoitida chumollilar yordamida changlanishi kuzatildi. To'pgullari 6-12 mm uzunlikdagi silindrsimon boshqoq to'pgulda yig'ilgan rangi ko'kish oq.

Tukli erva Termiz Davlat universiteti tarjiba uchastkasida o'simlikda gullar soni bitta tup o'simlikda maksimal darajada 15-25 dona gullar borligi aniqlandi. Minimal darajada esa 5-15 ta gullar borligi sanaldi.

Sho'rchi tumani "Oybek fermer xo'jaligida esa gullar soni maksimal 35-55 ta minimal 15-25 ta ekanligi aniqlandi. asosan chetdan changlanish kuzatildi (turli xil ashoratlar). Poyadagi shoxchalar soni 4-5 ta va poyada joylashgan gullar soni 5-15 tagacha bo'lishi kuzatildi.

#### **KO'PAYTIRISH USULLARI**

O'simlikni ko'paytirishda urug'lardan foydalaniladi. Dastlab urug'lar kichik yashiklarda, issiqxonalarda ko'chat tayyorlanadi. Tayyorlangan ko'chatlar aprel oyida ochiq maydonlarda 60x40 sm da ekiladi. Ekilgan ko'chatlarning bo'yi 10-15 sm ga yetishi bilan ularning uchki qismi chikanka qilinadi. Chikanka qilishdan maqsad yon shoxlarni rivojlatirishdan iborat.:

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Axmedov U., Ergaev A., Ablazov A., Yulchiev M. dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2009 105 S.
2. Zakirov P.K., Myasnikova L. Lekarstvennyye rasteniya tugaev Uzbekistana i perspektivnykh ispol'zovaniya // Sb. nauch. trudov Instituta botaniki AN UzSSR. – Tashkent, Fan, 1979. –S. 3-24.
3. Aerva lanata L. WWW.wikipedia